

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 1825,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 20,3 ming kishiga yoki 1,1 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 607,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,3 %), qishloq aholisi soni 1217,9 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **20,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **27,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **5,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limalarida **10,5 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Xorazm viloyat aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
27,0 ming bola



**Ko'chib kelganlar**  
4,9 ming kishi




Aholining  
umumiyo'sishi  
**20,3**  
ming kishi

**Vafot etganlar**  
5,8 ming kishi

**Ko'chib ketganlar**  
5,8 ming kishi

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 242,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 192,6 ming kishini (10,6 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 85,2 ming kishi (4,7 %) va Yangiariq tumanida 113,0 ming kishini (6,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Urganch va Xiva tumanlarida 1,8 %ni, Xonqa va Shovot tumanlarida 1,7 %ni, Xazorazsp tumanida 1,6%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiariq tuman 1,5%ni va Gurlan tumanida 1,4 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 27,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 19,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Xonqa (19,8 promilledan 21,4 promillega) va Urganch (18,0 promilledan 18,9 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Yangiariq (17,6 promilledan 17,4 promillega) va Yangibozor (20,7 promilledan 20,5 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-sentyabr )

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar: 13,0 ming nafar      O'g'il bolalar: 14,0 ming nafar

Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	26066	27024	103,7
Urganch shahar	2033	2031	99,9
Xiva shahar	1209	1225	101,3
tumanlar:			
Bog'ot	2403	2462	102,5
Gurlan	2026	2076	102,5
Qo'shko'pir	2273	2490	109,5
Urganch	2530	2698	106,6
Xazorasp	3713	3912	105,4
Xonqa	2638	2889	109,5
Xiva	1963	1982	101,0
Shovot	2528	2501	98,9
Yangiariq	1459	1462	100,2
Yangibozor	1291	1296	100,4

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 5,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Bog'ot (4,5 promilledan 3,9 promillega) Yangibozor (4,6 promilledan 4,1 promillega), Shovot (4,5 promilledan 4,1 promillega) va Gurlan (4,5 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
3,1 ming  
kishi

**Ayollar:**  
2,7 ming  
kishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (kishi, yanvar-sentyabr )


Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>6027</b>	<b>5810</b>	<b>96,4</b>
Urganch shahar	704	618	87,8
Xiva shahar	300	330	110,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	521	466	89,4
Gurlan	482	443	91,9
Qo'shqo'pir	493	500	101,4
Urganch	598	618	103,3
Xazorasp	798	767	96,1
Xonqa	551	583	105,8
Xiva	405	374	92,3
Shovot	547	500	91,4
Yangiariq	342	349	102,0
Yangibozor	286	262	91,6

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,7 %i o'simtalardan, 5,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 63,8 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,01 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'llim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-sentyabri

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 21,2 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 20,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
21,2 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiariq (113,5 %), Xiva (110,9 %), Yangibozor (105,7 %), Shovot (102,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Nikohdan ajralishlar.**

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Xiva (29,8%), Yangiariq (57,6 %), Qo'shko'pir (57,0 %), tumanlariga va Urganch shahriga (57,6 %) to'g'ri kelmoqda.



### **Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-sentyabr)**



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 yil	2018 yil	o'sish, %	2017 yil	2018 yil	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	10805	10527	97,4	1011	710	70,2
Urganch shahar	928	848	91,4	203	117	57,6
Xiva shahar	400	395	98,8	37	35	94,6
tumanlar:						
Bog'ot	1009	926	91,8	50	51	102,0
Gurlan	895	903	100,9	75	55	73,3
Qo'shko'pir	1039	977	94,0	100	57	57,0
Urganch	1117	1 016	91,0	126	107	84,9
Xazorasp	1511	1 432	94,8	122	83	68,0
Xonqa	1098	1 009	91,9	75	62	82,7
Xiva	671	744	110,9	47	14	29,8
Shovot	960	983	102,4	81	64	79,0
Yangiariq	636	722	113,5	59	34	57,6
Yangibozor	541	572	105,7	36	31	86,1

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,9 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,1 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar- sentyabr	2018 yil yanvar- sentyabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,2	4,9
<b>Ko'chib ketganlar</b>	6,0	5,8
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,8	-0,9

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Xazarasp tumani (minus 0,3 ming kishi), Qo'shko'pir tumani (minus 0,2 ming kishi), Shovot tumani (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.